

Date: 1st November-2025

**TASHKILOTLAR SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY MENEJMENT ORQALI
OSHIRISH YO'LLARI**

Shaymanova Dilnoza Ilhom qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

dilnoza.shaymanovaa@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezida zamonaviy menejment konsepsiyalarining tashkilot samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Bugungi raqobat sharoitida tashkilotlar samaradorlikka erishish uchun an'anaviy boshqaruvdan zamonaviy, innovatsion yondashuvlarga o'tmoqda. Shuningdek turli boshqaruv uslublari va ularning samaradorlikka ta'sir etuvchi omillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: menejment, samaradorlik, innovatsion yondashuv, strategik boshqaruv, inson resurslari, tashkilot madaniyati.

Kirish

So'nggi yillarda tashkilotlar faoliyati raqobat, texnologik o'zgarish va globallashtirish bosimi ostida tubdan o'zgarib bormoqda. Menejment fanining rivojlanishi bilan samaradorlikni oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar shakllandi. Ular orasida Lean menejment, Agile, TQM (Total Quality Management) va Balanced Scorecard tizimlari alohida o'rin tutadi. Zamonaviy menejmentning asosiy g'oyasi - inson resurslarini markazga qo'ygan holda strategik maqsadlarga erishishdir. Bu yondashuvda xodimlar faqat ijrochi emas, balki qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etuvchi sub'ekt sifatida qaraladi.

Samaradorlikni oshirish faqat ko'rsatkichlar bilan emas, balki xodimlarning qoniqishi, ijodkorlik muhiti, innovatsion faoliyat va mijoz ishonchi bilan ham belgilanadi.

N	Ko'rsatkichlar	An'anaviy menejment	Zamonaviy menejment
1	Qaror qabul qilish	Rahbar tomonidan qabul qilinadi	Jamoaviy qaror qabul qilish, ochiq muloqot asosida
2	Motivatsiya	Nazorat va intizomga asoslangan	Ishonch, rag'bat va shaxsiy o'sishga asoslangan
3	Maqsad	Rejalarni bajarish	Innovatsiya va sifatni oshirish
4	Boshqaruv uslubi	Asosan avtoritar boshqaruvda	Demokratik boshqaruv uslubi ustun turadi
5	Samaradorlikni o'lchash	Ish hajmiga ko'ra	Natija, mijoz qoniqishi va barqarorlik

1-jadval. An'anaviy va zamonaviy boshqaruv tizimlari farqlari

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, zamonaviy menejment inson omiliga asoslanadi va tashkilot ichida ijobiy muhitni yaratishga yordam beradi. Bu esa samaradorlikning oshishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi.

N	Menejment modeli	Asosiy yo'nalishi	Natijaviy ko'rsatkich
1	Lean menejment	Isrofgarchilikni	Xarajatlar 20-30% gacha



Date: 1st November-2025

		kamaytirish va jarayonni optimallashtirish uchun	qisqaradi
2	Agile	Tezkor qaror qabul qilish va moslashuvchanlik uchun	Loyihalar samaradorligi 25% ga oshadi
3	TQM	Sifatni doimiy yaxshilash uchun	Mijoz qoniqishi 15-20% ga ortadi
4	Balanced Scorecard	Strategik maqsadlarni o'lchash va muvofiqlashtirish uchun	Korxonalar barqarorligi oshadi
5	Inson markazli menejment	Xodimlarni rivojlantirish, motivatsiya uchun	Mehnat unumdorligi 20-35% ga ko'tariladi.

2-jadval Zamonaviy menejment konsepsiyalarining samaradorlikka ta'siri

Ko'plab tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, samaradorlikning eng muhim omili - bu inson resurslarini to'g'ri boshqarish va ishonchga asoslangan korporativ madaniyatni shakllantirishdir.

Xulosa

Tashkilotlar samaradorligini oshirish uchun boshqaruv tizimlarini yangilash zarur. Zamonaviy menejment modelida inson markazda bo'ladi, texnologiyalar esa yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi. Innovatsion yondashuvlar orqali jarayonlarni soddalashtirish, xodimlar motivatsiyasini oshirish va mijozlarga yo'naltirilgan xizmat ko'rsatish tizimi tashkilotning raqobatbardoshligini oshiradi. Demak, samaradorlikni oshirish uchun moslashuvchan boshqaruv, strategik fikrlash va inson kapitaliga sarmoya kiritish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Drucker, P. F. (2007). The Practice of Management. Harper Business.
2. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (2001). The Strategy-Focused Organization. Harvard Business School Press.
3. Robbins, S. P., & Coulter, M. (2018). Management (14th Edition). Pearson Education.
4. Fayol, H. General and Industrial Management
5. N.K.Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov "Menejment", Toshkent, 2018.

